

“Navoiy tili lug’ati” nashr qilinmoqda


Navoiy zamonidan to hozirgacha besh yuz sakson yil o’tdi. Shoir qo’llagan so’zlarning bir qismi iste’moldan chiqdi yoki Navoiy tilida ishlatilgan ba’zi so’zlar hozirgi o’zbek tilida butunlay boshqa ma’noda qo’llanilmoqda. Bunday so’zlarni tushunish uchun lug’at zarur bo’ladi. Umuman, Navoiy qo’llagan barcha so’zlarni o’z ichiga oladigan lug’at tuzish lozim.

Navoiy asarlari bo’yicha lug’atlar tuzish ancha oldin boshlangan. Ana shunday lug’atlardan biri “Badoe’-al lug’at”dir. Mazkur lug’at shoir hayotligidayoq Husayn Bayqaroning farmoniga muvofiq tuzilgan.

O’tgan asrning 80-yillarida 4 jildlik “Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati” nashrdan chiqdi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgacha shoir asarlariga 20 dan ortiq lug’at tuzilgan, ammo ularning saviyasi bir xil emas. Bundan tashqari mazkur lug’atlardagi bosh so’zlar soni har xil va Navoiy asarlarida uchraydigan barcha so’zlar olinmagan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktabrdagi «Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to’g’risida»gi 4865-son qaroriga muvofiq besh jilddik «Alisher Navoiy asarlarining izohli lug’atini nashr etish» vazifasi belgilangan. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida O’zR FA O’zbek tili, adabiyoti va folklori institutida Berdak Yusuf boshchiligidagi O’zbek tili tarixi va dialektologiya bo’limi a’zolari “Navoiy tili lug’ati” ustida izlanishlarni olib bormoqdalar.

Hozirda B.Yusuf muallifligidagi 5 jildli lug’atning 1-jildi nashr etilgan. 1-jild A-D harflarini o’z ichiga olgan. Unda 4730 ta bosh so’z bo’lib, ular ma’nosi lug’atda Navoiy asarlaridan keltirilgan misollar orqali dalillangan.



5 jildli lug'atning boshqa lug'atlardan afzalligi shundaki, unda shoir ishlatgan hamma so'zlar o'z aksini topishi bosh maqsad qilib belgilangan.

2-jildi esa ulug' shoir tavalludiga munosib sovg'a sifatida chop etilishi uchun "Sharq" nashriyotiga topshirildi. Yaqin kunlarda mazkur lug'atning 2-jildi nashrdan chiqishi kutilmoqda. Qolgan jildlar ham

nashrga tayyorlanmoqda.